

## O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA TA’LIM OLUVCHINING AKADEMIK JARAYONDAGI ROLI VA STRATEGIYALARI

**Kadirova Xurshida,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adbiyoti universiteti,*

*O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti*

*Filologiya fanlari doktori (DSc),*

*E-mail: [qodirova@navoiy-uni.uz](mailto:qodirova@navoiy-uni.uz); [kadirova.golden@yandex.ru](mailto:kadirova.golden@yandex.ru)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18476977>

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O‘zbekiston millatiga, xalqning urf-odatlarini va o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganligini hisobga olgan holda uni boshqa millat vakiliga tilning go‘zal taraflarini ko‘rsatish, til ta‘limni qulaylashtirish siyosat darajasiga ko‘tarilar ekan, buning ustida ishlashni davr taqozo qilmoqda. Bunda o‘qituvchining roli, til o‘rganuvchi yoki o‘zga tilli talabaning roli haqidagi muayyan nazariy va amaliy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada til ta‘limida ta‘lim oluvchining psixologik holati, tilga va o‘qituvchiga bo‘lgan munosabati tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, til ta‘limi, affektiv filtr, “affektiv filtr”dan chiqish, muvaffaqiyatli talaba, akademik jarayon.

**Abstract:** Given the growing interest in Uzbekistan’s national identity, people's traditions, and the Uzbek language, the need to showcase the beautiful aspects of the language to representatives of other nationalities and facilitate language learning has risen to the level of policy. The current era demands work on this issue. In this context, specific theoretical and practical knowledge about the roles of teachers, language learners, and foreign language students is of great importance. This article analyzes the psychological state of learners in language education and their attitudes towards the language and the teacher.

**Keywords:** Uzbek language, language education, affective filter, overcoming the “affective filter”, successful student, academic process.

**Аннотация:** Учитывая растущий интерес к узбекской нации, обычаям и традициям народа, а также к узбекскому языку, необходимость демонстрации красоты языка представителям других национальностей и упрощения языкового обучения поднимается на уровень государственной политики, и время требует работы над этим. При этом важное значение приобретают определенные теоретические и практические знания о роли преподавателя, изучающего язык или иноязычного студента. В статье анализируется психологическое состояние обучающегося в языковом образовании, его отношение к языку и преподавателю.

**Ключевые слова:** узбекский язык, языковое образование, аффективный фильтр, преодоление “аффективного фильтра”, успешный студент, академический процесс.

**Kirish.** O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2020-yil 20-oktyabrda “Mamlakatda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida o‘zbek tili o‘qituvchilarining maqsad va vazifalari qat’iy belgilab berildi. Xususan, “o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish” hamda “mamlakatda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkonimiyatlar hamda ularga davlat tilini o‘qitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish” bugungi kunda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilini ingliz tili singari o'qitib bo'lmaydi, ularning semantik-struktur jihatdan turli guruhlariga mansubligi bunga to'sqinlik qiladi, biroq o'qitish metodikasi, pedagogik mezonlarini qo'llash mumkinligi haqida o'ylab ko'rish kerak. Mazkur mezonlarni o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llash foydadan holi emas. Shunday ekan, dars shakli, o'qitish uslubi mental va madaniy kompetentsiyalarga yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Shu ma'noda har qanday tajriba belgilangan maqsadni osonlashtiradi. Til o'rganish boshqa ta'limga nisbatan ommaviy va zamonaviy hisoblangani uchun, bunda xorijiy tajriba muhim rol o'ynashi tabiiy. Xususan, o'zbek tilini o'qitishda xorijiy tillarni o'qitishdagi muayyan tajribalarni olib kirish ushbu ishning maqsadlaridan biri hisoblanib, rus guruhlarida ***o'zbek tilining samaradorligini oshirish dars sifatini yaxshilash*** uchun qilingan harakatdir.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim tog'risidagi qonunda ta'lim olish shakllari aniq ta'rif berilgan bo'lib, har qanday shaklda ham uning samaradorligi uchun faqat o'qituvchi emas, ta'lim oluvchining ham roli beqiyos ekanligi ma'lum. Albatta, bugungi kunda jahon standartlaridagi eng faol shakl bu mustaqil ta'lim ekan, har bir ta'lim shaklida bo'lganidan ta'lim oluvchidagi ichki imkoniyat, xohish-istak, shijoat, qolaversa sajjiyasidagi sifatlar til o'rganish jarayonida natija olishga yo to'sqinlik qiladi yoki mavaffaqiyat sari yetaklaydi. Bunda quyidagi omillar sabab bo'la oladi:

**Affektiv filtr.** O'z-o'zini anglash – bu o'z-o'zini ko'rish qobiliyati, o'zini tashqi tomondan tasavvur qilish. Bu xuddi ko'zguga qarashga o'xshaydi. O'z-o'zini anglash vaqt o'tishi bilan rivojlanadi. Ya'ni, odatda bolalar o'zlarini kattalarga qaraganda kamroq bilishadi. Endi savol tug'iladi: o'z-o'zini anglash yaxshimi yoki yomonmi?

Bir tomondan, o'z-o'zini anglash bizga tashqi ko'rinishimizni, o'zimizni qanday his qilayotganimizni va nima uchun bunday his qilayotganimizni bilish qobiliyatini beradi. Bu ma'lum miqdordagi ishonchni beradi, chunki biz o'zimizni munosib ko'rinishimiz va yaxshi ko'rinishimizni bilamiz.

Boshqa tomondan, o'z-o'zini anglash ba'zan yomon bo'lishi mumkin. Ba'zan, ayniqsa, yangi sharoitlarda odam o'zi haqida, kimligi va nima qilayotganligi haqida juda ko'p o'ylab, asabiylasha boshlaydi va o'ziga ishonchni yo'qotadi. Quyidagi hikoyaga e'tibor bering.

*“16 yoshimda juda katta ko'zoynaklarim va juda paxmoq sochim bor edi. Mening birdan-bir orzuim butun dunyoga mashhur bo'lgan “Musiqqa mashinasi” xorida kuylash edi. Ko'proq qizlarga yoqish maqsadida bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Meni sinab ko'rishlari uchun u yerga bordim. Meni tinglab ko'rishlaridan bir kun oldin do'stim Jozefning maslahati bilan “Dengiz ostida” qo'shig'iga tayorgarlik ko'rdim. Men uni besh marta mukammal kuyladim, uni o'ta mukammallikka olib chiqdim. Ertasi kuni sinovdan o'tib,*



sahnaga chiqqishim kerak bo'ldi. Bu hayotimda birinchi marta sodir bo'layotgan edi. Musiqa rahbari va xoreograf uzun va qorong'i auditoriyaning orqa tomonidagi stolga o'tirishdi. Stolda mikrofon bor edi. To'g'ridan-to'g'ri stol va uning orqasida o'tirgan ikki kishi oldida yorqin sahna nuri porladi.




Men sahnaga chiqayotganda katta hayajonni his qildim. Rahbarning so'zlari bilan mikrofon yoqildi. "Tayyor bo'lganda qo'shiq ayt", dedi u. Musiqa yangray boshladi va menning qo'shiq aytishim mumkinligiga ularni ishontirish uchun 60 soniya vaqtim bor edi. Muammo shundaki, men shunchalik qo'rqardimki, bitta satrni ham eslay olmadim. To'g'rirog'i, men ertalab matnni unuta boshlagan edim, shuning uchun, hamma narsani qo'llarimga yozib olgan edim. Lekin hozir sahna nuri yuzimga to'g'ri kelganidan so'ng, men qo'llarimdagi yozilganlarni ham o'qiy olmadim, chunki so'zlar hayajonlanganimning oqibatida paydo bo'lgan terdan xiralashib boshlagan edi.

Men o'sha yerda turib, qo'llarimga tikilib qoldim va musiqa 60 soniya davomida chalindi, men esa qo'shiqdagi bir nechta ma'nosiz so'zlarni o'ng'aysiz g'o'ldirab qo'ydim. 16 yoshda edim. Ishonchim komilki, ko'pchilik o'sha yoshda, albatta, sahnada bo'lishni o'ylaydi. Lekin o'sha oqshom men buni orzu qilmagan edim."

Til o'rganish ham shunday. Bu o'z-o'zini anglash bilan bog'liq. Har holda xotiraning psixologik vaziyatlarda pand berishi mumkin bo'lgan holatga yaxshi misol bo'la oladi.

Aksariyat hollarda yangi tilni o'rganish talabalarda o'ziga xos o'z-o'zini anglashni rivojlantiradi. Til o'rganishda o'z-o'zini anglash nutq, grammatik xatolar va axborotning qanchalik to'g'ri qabul qilinayotganligini bilish demakdir. Shu ma'noda til o'rganish sahnaga chiqishga o'xshaydi. Talabalar esa birinchi marta biror narsa qilishga harakat qilishadi va bu juda



o'ng'aysiz bo'lishi mumkin. Bizning taniqli ESL (English as a second language – Ingliz tili ikkinchi til sifatida) nazariyotchimiz Stiven Krashen [8.] bu tushunchani "affektiv filtr" atamasi yordamida tushuntiradi. Uning ta'kidlashicha, "affektiv filtr" til o'rganuvchilarning muayyan yangi ma'lumotni qayta ishlayotgan va uni tilda takrorlashga harakat qilayotgan murakkab his-tuyg'ularini anglatadi.

Qisqa qilib aytganda, "affektiv filtr" yuqori bo'lsa, bu his-tuyg'ularga ko'milishni bildiradi. G'azab, qahr, o'kinch yoki tahluka. Va agar "affektiv filtr" past bo'lsa, bu stress kamroq ekanligini anglatadi. Va keyingi ma'lumotlar oqimini ancha oson qabul qilinishi mumkin.

Yuqoridagi hikoyada sinov paytida bolaning "affektiv filtr" darajasi shunday edi. U gradusdan chiqib ketdi. Bir kun oldin, deyarli zo'riqmasdan qila oladigan oddiy ishlarni

ham qila olmadi. Oldin bilganlarni takrorlash imkonsiz bo'lib qoldi, chunki o'ziga va mumkin bo'lgan xatolariga e'tibor qaratdi va hech narsani eslay olmadi.

Til o'qituvchisi talabaning yangi narsalarni o'rganish va amalda qo'llash naqadar mashaqqatli ekanini, til o'rganuvchini baholovchilar oldida uni amalga oshirish naqadar qiyinligini bilishi kerak. "Affektiv filtr", ayniqsa, auditoriya sharoitida juda yuqori bo'lishi mumkin. Va o'qituvchi ushbu filtrni kamaytirishga yordam beradigan va talabalarning xotirasiga, shuningdek, tayyorlagan, o'rgangan materialni bilishiga ishonch hosil qiladigan muhitni yaratishi kerak.

**"Affektiv filtr"dan chiqish.** "Affektiv filtr" til o'rganuvchining yangi tilda muloqot qilishni osonlashtiradigan yoki qiyinlashtiradigan murakkab hissiy jarayonlar to'plamidir. Til o'rganish sahnaga chiqish kabidir, chunki o'rganuvchi o'zini ayni damda bosim ostida his qiladi. Bu uning har bir harakatidan o'zi xabardor bo'lishiga yordam beradi.

**Metodlar.** Tilni o'rganish ko'plab til o'rganuvchilar uchun juda qiyin ekan, uni osonlashtirish, "Affektiv filtr" darajasini pasaytirish uchun o'qituvchi nima qilishi kerak?

Buning uchun bir nechta usullarni qo'llash mumkin:

**Birinchidan.** Darsning boshidanoq barcha til o'rganuvchi bilan hissiy aloqa borligiga ishonch hosil qilish kerak. Eng samarali texnika o'qituvchining talabalarga o'z muvaffaqiyatsizliklari bilan o'rtoqlashish, mag'lubiyatlarini baham ko'rish va ularni qanday his qilganini aytib berishdir. Talabalarga yangi materialni o'rganishda yo'l qo'yilgan ahmoqona xatoliklarni aytib berish orqali ularni tushunish mumkinligini ko'rsatadi.

**Ikkinchidan,** xatolarni hamisha normal holat deb bilish. Yaxshi pedagog talabalarning sa'y-harakatlarini qadrlaydi va ularni til o'rganishda xatolar muhim ekanligiga ishontiradi. "Shoshmang" yoki "Oh, deyarli o'xshadi" kabi ilhomlantiruvchi so'zlar bilan doimo sahnadagilarni olqishlab turish kerak, chunki muvaffaqiyat doimiy harakatdan kelib chiqadi, shuning uchun ularni o'quv jarayonining o'zi uchun mukofotlash va talabalarni har tomondan mukammal va sayqallangan zaboni haqida o'ylashdan chalg'itishga harakat qilish kerak.

**Uchinchidan.** Formativ baholashdan foydalanish. Talabalarga vaziyatlarda o'zini sinab ko'rish imkoniyatini berish va turli qonun-qoidalarga rioya qilishdan kamroq tashvishlanish vaziyatini taqdim etish yaxshi samara beradi. Bunda 80/20 nisbatini saqlash, hech shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shuni anglatadiki, talabalar bilan vaqtning taxminan 80%i diffuz rejimda mashq qilishga sarflanishi kerak. Keling, ushbu tamoyilni "affektiv filtr" va uni kamaytirish uchun qo'llashga harakat qilaylik. Ushbu parametrlar o'qituvchi uchun "affektiv filtr"ni pastga tushirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Chunki aynan shu qoida doirasida o'qituvchi til o'rganuvchilarning xato qilishlari, nazoratlardan vahimaga tushmasliklari uchun alohida muhit yaratishi mumkin.

Auditoriyadagilarga o'qituvchi qattiqqo'l hakam emasligini ko'rsatishi kerak. U yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshchi va uning maqsadi talabalarga auditoriyadan tashqari kelajakdagi hayotiy qiyinchiliklarga tayyorlanishga yordam berishdir. Talabalarga shunchaki baho qo'yish o'rniga fikr bildirilsa yanada yaxshi. Bu mushkul, og'ir sayohatdagi muhim bosqichga o'xshaydi va bu formativ baholash deb ataladi. Formativ baholashning yaxshi tomonlari bor, talabalar o'qituvchini hakam sifatida emas, balki trener, kordinator sifatida ko'rishadi. Bo'lajak o'yinlar uchun maydonda nima qilish kerakligi haqida maslahat beradigan murabbiy. Talabalar sa'y-harakatlarining natijalari baholanganda, baholar qo'yilganda, formativ bahoning summativ bahodan katta farqi bor.

**To'rtinchidan**, kulgili ko'rinishga tayyor bo'lish. Buni rivojlantirish kerak. Talabalar o'qituvchini kulgigili holatda ko'rishga imkon berish kerak. Shaxsan men, talabalar meni darsdan tashqarida ko'rganda beixtiyor tabassum qilganini ko'rib, "Meni ko'rganingda Avaz Oxunni ko'rgandek bo'lasanmi..." deya hazillashaman. Bu talabalarga tavakkal qilishlari uchun ruxsat bor ekanligini ko'rsatadi, o'zlarining badastrlik hududidan chiqib ketishlari mumkinligini tushunishlariga yordam beradi. Qaysidir ma'noda talabalarga aytish mumkin: "Bizning auditoriyada, har qanday tajribaga ruxsat beriladi. Qiziqarli narsani gapirib bering. Aslida men buni sizdan kutaman va talab qilaman." Talabalar ular uchun xavfsiz joy yaratganingizni anglab, o'zlarini yanada qulay his qilishadi.



**Aqilli olimning aqlsiz ishi.** Yuqorida aytilganidek, talabalar tavakkal qilishdan qo'rqmasliklari uchun "affektiv filtr"ni pasaytirish muhim ekan, har doim talabaning qachon tavakkal qilishi va qachon qilmasligini aniq bilish zarurati bilan bog'liq.

Boshqacha qilib aytganda, o'rganuvchilar til o'rganish strategiyasini to'g'ri tanlash orqali o'zlariga bo'lgan ishonchlari ortib boradi, ishtiyoqlari kuchayadi va pirovardida til ko'nikmalarini yaxshilaydi. Demak, tavakkal qilish yaxshi, lekin hamma tavakkalchilik ham bir xil emasligi borasida mulohaza yuritimiz.



**Learning 300 words  
every day.  
Effective or Not?**

Yana bir hikoyani til ta'limida juda faol foydalaniladi. U internet sahifalarida ko'p uchraydi. Fransua Guin, aqlimi yoki aqli noqismi? Hikoya quyidagicha. Fransua Guen XIX asrning oxirida yashagan va Fransiyada lotin va qadimgi yunon tili bo'yicha professor bo'lgan. Juda salohiyatli odam edi. U, shuningdek, kitoblar yozgan va o'z davrida til o'rganishda inqilob qilgan Charlz Berlitsning o'tmishdoshi hisoblanadi. Bizningcha, har bir ingliz tili o'qituvchisi Gouinning eng mashhur "Chet tillarini o'rgatish san'ati"

kitobini nafaqat uning til o'rganish haqidagi g'oyalari, balki o'zining til o'rgatish

tajribasini oshirish uchun ham o'qishi kerak. Gap shundaki, taxminan 1880-yillarda Fransua nemis tilini o'rganishga qaror qiladi. U bir yilga ta'til olib, Germaniyaning Gamburg shahriga ko'chib o'tdi. Birinchi o'n kun ichida xonadan chiqmasdan nemis tilini o'rganadi. O'n kun davomida xonasida bo'lib, u 248 ta noto'g'ri fe'lni yod oladi, grammatikani o'rganadi va hamma narsani eslab qolmagunicha xonadan chiqmaslikka qaror qiladi. O'n kundan keyin u nihoyat xonadan chiqib, bilimni sinab ko'rmoqchi bo'ladi. U ma'ruza tinglash uchun universitetga boradi.

U o'z tajribasi haqida shunday yozgan: *“Birgina so'z ham emas! Bir so'z ham miyamga kira olmadi! Bundan tashqari, men endigina o'rgangan bitta ham grammatik shaklni aniqlay olmadim. Men hozirgina o'rgangan bitta ham noto'g'ri fe'lni aniqlay olmadim, garchi ular ma'ruzada aniq talaffuz qilingan bo'lsa ham.”*

Shunday qilib, Fransua o'z xonasiga qaytib keldi va yana sakkiz kunga eshikni qulfladi. Bu safar u 800 ta nemischa so'z o'zaklarini yod oldi, shuningdek, noto'g'ri fe'llar va grammatika haqida xotiradagilarini yangiladi. Va yana universitetga bordi. Va bu safar ham bitta ham so'zni tushuna olmadi.

Fransua Guenning sa'y-harakatlarini oqlaydigan tarafi ham bor. Uning matonati, maqsadiga bo'lgan shijoati tahsinga sazovor. U urinishdan voz kechmadi. U taslim bo'lmadi, lekin u xuddi shu strategiyani qo'llashda davom etdi. Nihoyat, uchinchi marta u uni o'zgartirishga harakat qildi.

U deraza tagidagi do'konga borishga qaror qildi. E'tiborga molik joyi shuki, nihoyat u xonani tark etdi va mijozlar bilan gaplashishga harakat qildi. U og'zini ochib nimadir demoqchi bo'lgan ediki, ming afsuski, uning ustidan kula boshlashdi. Va bu vaziyatni yanada yomonlashtirdi. Bechora, ko'ngilchang Fransua, professor, daho, kulgili ko'rinardi – uning o'rnida bo'lishimiz mumkin bo'lgan har birimiz kabi. Vaholangki, u kulgili ko'rinishga odatlanmagan – axir u universitet professori-ku!

Ayrim hollarda aql ham insonni gohida kulgili holatga tushirib qo'yadi. Umuman olganda, hikoya fojiali yakunlangan. Katta sarosimada Guen xonasiga qaytib, sal avval eshitgan jumalarni tarjima qilishga urinib ko'rdi. Bu harakat samara bermadi. Keyin u dialoqlarni kitobdan o'rganishga harakat qildi. Bu ham besamar yakun topdi. Yana muvaffaqiyatsizlik. Keyin Guen bir oy davomida 30 000 ta so'zini yodlab oldi, yana foydasi yo'q.

Tasavvur qiling, bir yillik urinishdan keyin nima bo'ldi? Fransua Guen nemis tilini bir luqma ham o'rganmay uyga qaytadi, bu hikoya nima haqida va undan nimani o'rganishimiz mumkin? Guen tajribasi shuni ko'rsatadiki, amaliyot chet tilini o'rganishning muhim qismidir va yodlashning o'zi yetarli emas. Ammo bu hikoya talabalarning quyidagi sifatini ko'rsatadi:

*Birinchi*dan, hamma aqlli ko'rinishni yaxshi ko'radi. Fransua Guen kabi tilni o'rganuvchi kattalar esa aqlli ko'rinishga o'rganib qolgan.

*Ikkinchidan*, talabalar aqlsiz ko‘rinishga o‘rganmagani uchun, ular ko‘pincha til o‘rganish strategiyalarini tanlaydilar, bu ularni aqlsiz ko‘rinishdan va tavakkal qilishdan saqlaydi. Bu usullar bilim hajmini oshirishga qaratilgan, lekin tilning ravonligini oshirishga emas. Bizning asosiy maqsadimiz esa tilni ravon ifoda etishlariga erishish.

**Natija va mulohazalar.** Til o‘rganuvchilarning tajribalarini talabalarga havola etib turish foydadan holi emas. Buni talabalarga yolg‘iz emasliklarini his qilishlari uchun amalga oshirish kerak, chunki bu ularning “affektiv filtr”ini kamaytirishga yordam beradi. Bunday hikoyalar hayotiy bo‘lishi kerak. Buning uchun til o‘qituvchisi doimo til o‘rganib yurishi kerak, ikkinchi, uchinchi tillarni o‘rganish til o‘qituvchisini muntazam rivojlanishiga, o‘zga tilni o‘rganishda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklarni idrok etishiga olib keladi, va nihoyat, talabalarga so‘zlab berish uchun kulgili vaziyatlar, hikoyalar paydo bo‘ladi. O‘z ona tilini o‘zgalar uchun chet tili ekanligini tushunish uchun ham boshqa tillarni o‘z tanasida his qilib ko‘rish kerak.

Talabalarga ham shunday imkoniyat yaratib, hikoyalarni o‘qishga ruxsat berish, o‘z til o‘rganish strategiyalarini kashf qilish va kengaytirishga yordam berish kerak. Misol uchun, til o‘rganuvchilarga Fransua Guen haqida gapirilgandan so‘ng, ko‘pincha talabalardan qanday strategiyalardan foydalanishlari haqida fikr yuritishlarini so‘rab ko‘rish foydadan holi bo‘lmaydi.

Talabalarga muvaffaqiyatli strategiyalardan foydalanishga yordam berishning yana bir samarali usuli – yaxshi til o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni ko‘rib chiqishdir. Bir qator tadqiqotlar muvaffaqiyatli til o‘rganuvchilar tomonidan amalga oshirilgan. Ular o‘zlari qo‘llagan til o‘rganish strategiyalarini, jumladan, eng yaxshi natijalarga erishishning kognitiv va metakognitiv strategiyalarni tasvirlab beradi.

Har bir strategiya universal va har bir talaba uchun mos bo‘lmasa-da, eng yaxshi, eng muvaffaqiyatli til o‘rganish usullari haqidagi ma’lumotlarni bilish o‘qituvchi uchun juda foydali. Bu til o‘rganuvchilarning yangi narsalarni sinashdan qo‘rqmaslikka undash imkonini beradi.

***Yaxshi talaba taxmin qila oladi.*** Muvaffaqiyatli talabalar ko‘pincha muhokama qilinadigan mavzuni oldindan bilishadi yoki ayniqsa o‘qituvchi yordam bersa taxmin qilishlari mumkin. Kommunikativ yoki kontekstual konnotatsiyalarni kuchli his qiladigan talabalar ko‘pincha eng yaxshi natijalarga erishadilar. Muvaffaqiyatli talabalar ko‘pincha darsning faqat bir tomoniga e’tibor berishadi. Ular e’tiborni zoye qilmaslik uchun faqat o‘zlari uchun eng muhim deb hisoblagan narsalariga e’tibor qaratadilar.

***Yaxshi talaba tayyorgarlik ko‘radi.*** Albatta, tayyorgarlik juda muhim. Masalan, og‘zaki bayonning asosiy tezislarni oldindan yozib olgan talaba shular jumlasidan. Qoidasiga ko‘ra, bunday talaba tayyorlanmasdan gapiradigan odamga qaraganda ancha yaxshi gapiradi va ahmoq yoki kulgili ko‘rinishdan qo‘rqmaydi. Bu esa juda muhim.

***Yaxshi talaba kulgili ko‘rinishdan qo‘rqmaydi.*** Qo‘rquvdan mahrum bo‘lgan yoki hatto masxarabozlikka moyil bo‘lgan talabalar ko‘pincha tilni osonroq o‘rganishadi,

chunki ular boshqalarning ular haqidagi fikrlari yuzasidan qayg'urmaydilar. Buning o'rniga topshirilgan vazifaga e'tibor berishadi va uni bajarishga harakat qilishadi.

**Yaxshi talaba amaliyotda toblanadi.** Amaliyotning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Talabalar qanchalik ko'p mashq qilsalar, natija shunchalik yaxshi bo'ladi. Amaliyot har qanday chet tili darsining samarali asosi hisoblanadi.

**Yaxshi talaba o'zini tekshiradi.** Talabalarning nutqi, yozishi, talaffuzi, grammatikasi, so'z boyligidan to'g'ri foydalanishi ana shu amaliyotda toblanadi. Uni amaliyotda sinab ko'rishi muhim ahamiyatga ega. Shakl va mohiyatga rioya qiladigan talabalar ko'pincha eng muvaffaqiyatli talabalardir.

**Yaxshi talaba savol beradi.** Atrofdagilarga savol beradigan, o'z savollariga javob oladigan talabalar ko'pincha boshqalarga qaraganda muvaffaqiyatga ko'proq erishadilar.

**Yaxshi talaba yozib oladi.** Talabalar darsda eshitganlari va muhokama qilganlarini yozib olishlari muhim, chunki bu ularga yangi materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

**Yaxshi talaba vizualizatsiyadan foydalanadi.** Yangi so'zlarni obrazlar bilan bog'laydigan talabalar yaxshiroq ishlaydi va so'zlarni osonroq eslab qoladi.

**Yaxshi talaba javoblarni turli yo'llar bilan topa oladi.** Muvaffaqiyatli o'quvchilar javoblarni lug'atlardan, o'qituvchilardan va boshqa talabalardan topa oladilar. Ular bitta manbaga qarab qolmaydi, balki ko'p manbalardan izlaydi.

**Yaxshi talaba jismoniy harakatlardan foydalanadi.** Muvaffaqiyatli talabalar yangi so'zni jismoniy harakatlarga bog'lash orqali assotsiatsiyalar yaratishi mumkin. Va bu unga yangi so'zlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

**Yaxshi talaba o'yin tarafdori bo'ladi.** Muvaffaqiyatli talabalar so'zlar bilan o'ynashlari mumkin. Ularning tartibini o'zgartirish va gaplarga yangi ma'no berish shular jumlasidan. Shunda, o'qituvchi ham til bilan o'ynashi kerak bo'ladi.

Muvaffaqiyatli talabalarning strategiyalarini muhokama qilganimizda, ularning aksariyati muvaffaqiyatli o'qituvchilarning strategiyalariga o'xshashligini sezish mumkin. Talabalar yuqorida tavsiflangan strategiyalardan faol foydalanmasa ham, o'qituvchi ularni har doim auditoriyada muvaffaqiyatli qo'llashi mumkin.

Talabalarga bashorat qilishga, savollar berishga, rasmlardan foydalanishga, o'ynashga yordam berish samarali natijalarga yuzlashtiradi. Demak, talabalar nafaqat nimani o'rganishni, balki qanday o'rganishni ham bilishlari kerak, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chet tili o'qituvchisi sifatida esa o'qituvchi til o'rganuvchilarni to'g'ri, samarali strategiyalarga yo'naltirishda muhim rol o'ynashi kerak. Boshqacha qilib aytganda o'qituvchi talabalarini jar yoqalab harakat qilishda qo'lidan ushlab, to'g'ri yo'nalishni ko'rsatib borish kerak. Endi o'qituvchi borasida yana bitta metafora tug'iladi: o'qituvchi o'rmonda o'zini va shogirdlarini o'nqir-cho'nqirliklardan qo'lidan yetaklab boruvchi yo'l boshchi. Talabalarga Fransua kabi jar yoki qopqonga tushib qolmasliklariga yordam

berish va qanday strategiya va usullar ularni o‘rmondan tezroq olib chiqishini aytish o‘qituvchining vazifasidir.

**Xulosa.** Til o‘rganuvchilar ko‘pincha o‘zlarini sahnada qanday his qilishadi. Tilni o‘zlashtirishga yordam beradigan va zarar yetkazadigan “affektiv filtr”, ya’ni murakkab tuyg‘ular yig‘indisi mavjud ekan, o‘qituvchi talabalar bilan qalban bog‘lanib, ularning xatoga e’tibor bermasliklari, past bahoni qabul qilishi va shunchaki kulgili ko‘rinishga tayyor bo‘lishi mumkinligini uqtirishi va bu orqali mazkur filtrni zararsizlantirishi muhimdir.

Shuningdek, Frasua Guenning shaxsiy tajribalari va uning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan alamli urinishlarini talabalarga misol qilib keltirilishi kerak. Uning aqlli professor bo‘lgani holda, tilni o‘rganishdagi strategiyasi aqlli ish bo‘lmagani haqida talabalarga ibrat bo‘lishi zarur.

Talabalarga til o‘rganishda qaysi strategiyalar yordam berishini va qaysi biri yordam bermasligini tanlashga yordam beradigan yo‘l ko‘rsatuvchi bu o‘qituvchi ekan, o‘qituvchi til o‘rganuvchilarga to‘g‘ri strategiyalarni tanlashda yordam berishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kadirova X. O‘qituvchi va dars sifati masalalari: xorij va milliy tajriba //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 11. – С. 99-102. <https://journals.nuu.uz/index.php/actanuuz/article/view/9677>
2. Kadirova K. Створення списку сайтів для практичного і самостійного вивчення української мови //International Science Journal of Education & Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 26-33.
3. Kadirova, X. (2024). O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda mustaqil ta’limning ahamiyati. *O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti*, 1(01), 7–14. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/93>
4. Кадирова Х. Два режима процесса обучения узбекскому языку в игровой технологии //Uzbekistan language and culture. – 2023. – Т. 5. – №. 2.
5. Кадирова Х., Эркин А. Личность и творческий подход учителя в образовании //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 43. – С. 593-599.
6. Крашен, Стивен Д. *Принципы и практика овладения вторым языком*. Прентис-Холл Интернэшнл, 1987.
7. Крашен, Стивен Д. *Приобретение второго языка и изучение второго языка*. Прентис-Холл Интернэшнл, 1988.
8. Рикардо Э. Шютц. Теория Стивена Крашена овладения вторым языком. // <https://www.sk.com.br/sk-krash-english.html> //